



TASDIQLANDI
"Olmaliq KMK" AJ
Boshqaruvi raisi

_____ A. Xursanov
«_____» _____ 2024-yil

"Olmaliq KMK" AJ
yetkazib beruvchining hatti-harakatlar
KODEKSI

Hujjat "Olmaliq KMK" AJ mulki hisoblanadi va maxfiy tusga ega. Ushbu hujjatning mazmunini yaxlit tarzda yoki qismlarga bo'lib takroran ishlab chiqish, yoki korxonada xodimlari hisoblanmaydigan uchinchi shaxslarga berish mumkin emas. Har qanday o'zgartirishlar ushbu hujjatning asl nusxasiga va faqat nazorat qilinadigan nusxalariga kiritiladi.



Hujjat kodi

K 0193950-66-1-2024

Tahrir №

1

Amal qilish
muddati



MAZMUNI

1.	UMUMIY QOIDALAR	4
2.	YETKAZIB BERUVCHILARNING KODEKSGA RIOYA QILISHI	4
3.	MEHNAT MUNOSABATLARI	4
4.	INSON HUQUQLARI	5
5.	ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH, SANOAT XAVFSIZLIGI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH	5
6.	ISH ETIKASIGA RIOYA QILISH	5
7.	IJTIMOIIY MAS'ULIYAT	6
8.	EKOLOGIK MAS'ULIYAT	6
9.	KODEKS BUZILISHI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNI KO'RIB CHIQISH	6



O'zgarishlarni ro'yxatdan o'tkazish varag'i

O'zgartirishlar	Varaqlar (sahifalar) raqamlari				Hujjatdagi hamma varaqlar (sahifalar)	Hujjat №	Ilova qilinadigan hujjatning kiruvchi №	Imzo	Sana
	o'zgartirilganlari	almashtirilganlari	yangilari	olib qo'yilganlari					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda “OKMK” deb yuritiladi) tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda O‘zbekiston Respublikasi, hamda butun dunyodagi yuqori ahloq standartlariga, ochiq va halol biznes yuritish tamoyillariga rioya qilgan, shuningdek uning barqaror rivojlanishiga qat’iy e’tibor qaratgan holda iqtisodiyotning barcha sohalarida kontragentlar bilan faol hamkorlik qiladi.

1.2. Barqaror rivojlanish OKMKning ajralmas qismi hisoblanadi. Joriy ish faoliyatida u barqaror rivojlanish va uning barcha tarkibiy qismlari: mehnat va sanoat xavfsizligi, korporativ boshqaruv, ishbilarmonlik etikasi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

1.3. OKMK uchun barqaror rivojlanish soliq imtiyozlari, yangi ish o‘rinlari yaratish, mavjud hududlarda mahalliy hamjamiyatlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, inson huquqlarini hurmat qilish va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish orqali jamiyat uchun iqtisodiy qiymat va imkoniyatlar yaratish demakdir. Atrof -muhit, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha yondashuvlarni optimallashtirish va takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish, ishbilarmonlik odob-axloqi, korrupsiyaga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga asoslangan xaridlar faoliyatini amalga oshiradi.

1.4. OKMKning “Yetkazib beruvchining hatti-harakatlar kodeksi”da yetkazib beruvchilarga yaxlitlik, axloqiy va huquqiy me’yorlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilish, maxfiylik, sovg‘alar, mukofotlar va biznes tushliklar, mehnat qonunlari, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik, atrof-muhitga oid talablarga rioya qilish talablarini aks ettiradigan, poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish, yetkazib berilgan materiallarni halollik raqobatini ta’minlashini o‘z ichiga olgan.

2. YETKAZIB BERUVCHILARNING KODEKSGA RIOYA QILISHI

2.1. OKMKning yetkazib beruvchilardan talabi:

ochiq va adolatli biznesni yuritish, ishbilarmonlik odob-axloqi va barqaror rivojlanish tamoyillariga, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining global shartnomasi, Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, amaldagi ekologik va sanoat xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari tamoyillariga rioya qilishi;

Kodeks qoidalariga rioya qilishi, shu jumladan yetkazib beruvchining Kodeksda belgilangan asosiy qoidalarni o‘z ichiga olgan axloq kodeksini qabul qilishi va amalga oshirishi;

Yetkazib beruvchilar tomonidan OKMK bilan tuzilgan shartnomalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan, shartnomalardagi o‘z xodimlari va pudratchilariga nisbatan Kodeks qoidalariga rioya etilishi.

3. MEHNAT MUNOSABATLARI

3.1. OKMK o‘z xodimlari bilan munosabatlarida ijtimoiy sheriklik tamoyillariga amal qiladi va nafaqat amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda, balki xodimlarni rivojlantirish, o‘qitish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha qator ixtiyoriy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan holda mas’uliyatli ish beruvchi bo‘lishga intiladi. OKMK yetkazib beruvchilardan shunday tamoyillarga amal qilishini ham talab qiladi.

3.2. OKMKning yetkazib beruvchilardan talabi:

uyushmalar (birlashmalar) erkinligini tan olish va jamoaviy muzokaralar olib borishda so‘z erkinligi huquqini amalga oshirish, xodimlarning mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishiga to‘sqinliklarning oldini olish va ularni qonun bilan taqiqlanmagan barcha vositalar bilan himoya qilish;

bolalar va majburiy mehnatdan foydalanishning oldini olish;



kamsitish va ta'qibdan holi ish muhitini ta'minlash (odamlarni irqi, rangi, milliy kelib chiqishi, nogironligi, dini, siyosiy qarashlari, kasaba uyushmalariga a'zoligi va amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa kamsituvchi sabablarga ko'ra kamsitish);

amaldagi qonunchilikka muvofiq adolatli va ob'ektiv ish haqi bilan, imtiyozlar va boshqa mehnat shartlari bilan ta'minlash;

me'yoriy mehnatni muhofaza qilish talablariga javob beradigan xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;

mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnatni muhofaza qilish va kasbiy xavf darajasini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

4. INSON HUQUQLARI

4.1. OKMK yetkazib beruvchilardan o'z xodimlariga, shuningdek, har qanday uchinchi shaxslarga nisbatan inson huquqlarini hurmat qilish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, shuningdek, mavjud hududlarda mahalliy hamjamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga sodiq bo'lishini talab qiladi.

4.2. OKMKning yetkazib beruvchilardan talabi:

mavjud hududlarda inson huquqlari va mahalliy hamjamiyatlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va Birlashgan Millatlar Tashkilotining global shartnomasi tamoyillarida belgilangan tamoyillarni qo'llab-quvvatlash;

o'z xodimlarining, shuningdek, har qanday uchinchi shaxslarning inson qadr-qimmatini va huquqlarini hurmat qilish;

mavjud hududlarni rivojlantirishga iqtisodiy va ijtimoiy hissa qo'shish, mavjud mintaqalardagi mahalliy jamoalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning madaniy merosi va an'analarini hurmat qilish;

shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va qo'llaniladigan qonunchilikka muvofiq ularga amal qilish.

5. ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH, SANOAT XAVFSIZLIGI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

5.1. OKMK yetkazib beruvchilardan mehnat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish masalalariga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish tamoyillariga amal qilishlarini talab qiladi.

5.2. OKMK mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish, xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarishda yetkazib beruvchilardan quyidagilarni talab qiladi:

atrof-muhitni va mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi sohasidagi amaldagi qonun hujjatlariga amal qilish;

atrof-muhitni va mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi bo'yicha OKMK bilan tuzilgan shartnomalardagi talablarga amal qilish;

Yetkazib beruvchilarga energiya iste'moli va issiqxona gazlari emissiyasi, suvdan oqilona foydalanish, xavfsizlikni ta'minlash, kimyoviy moddalarni tashish va utilizatsiya qilish, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yondashuvlarni maqbullashtirish va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash uchun OKMK bilan hamkorlik qilish.

6. ISH ETIKASIGA RIOYA QILISH



6.1. OKMK yetkazib beruvchilardan axloqiy va halol ish yuritish tamoyillariga amal qilishlarini talab qiladi.

6.2. OKMKning yetkazib beruvchilardan talabi:

OKMK bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda amaldagi qonunchilikka amal qilishi;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning har qanday turlari va jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) bilan bog'liq xatti-harakatlarning oldini olish, shuningdek, OKMKning korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati talablariga amal qilish;

biznes aloqalarimizda shaffoflik va mas'uliyatga intilish;

ish munosabatlarida nizolarni keltirib chiqaradigan harakatlar yoki harakatsizlikning oldini olish. Ishbilarmonlik munosabatlari ishtirokchilarining manfaatlari muvozanati asosida yuzaga kelgan nizolarni hal qilishga intilish;

maxfiy ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanishni taqiqlash va ulardan noto'g'ri foydalanishning oldini olish. OKMK bilan tuzilgan konfidensial axborotni himoya qilish bo'yicha shartnoma va shartnoma talablariga amal qilish;

Raqobatni adolatli, raqobat to'g'risidagi va monopoliyaga qarshi kurashish qonunlarga muvofiq olib borish.

7. IJTIMOIIY MAS'ULIYAT

Yetkazib beruvchilar o'zlari faoliyat yuritayotgan mahalliy hamjamiyatlar bilan hurmat, o'rganishga tayyorlik va o'zaro manfaatga asoslangan mustahkam aloqalarni rivojlantirishlari kerak.

8. EKOLOGIK MAS'ULIYAT

Yetkazib beruvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish va o'z ishlarini ekologik jihatdan mas'uliyatli, hamda barqaror tarzda bajarish majburiyatini qabul qilishlari zarur.

9. KODEKS BUZILISHI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNI KO'RIB CHIQISH

Har qanday shaxs (+998 70) 619-23-33 ishonch telefoni orqali qo'ng'iroq qilib yoki stop.corruption@agmk.uz elektron pochta orqali OKMKda Kodeksning buzilganligi haqida va unga ma'lum bo'lgan faktlar haqida xabar berish imkoniyatiga ega.

OKMK kelib tushgan barcha ma'lumotlarni ko'rib chiqilishini va zarur holatlarda tegishli choralar ko'rilishini ta'minlaydi.

KELISHILDI:

S.Larionov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari
v.b. – bosh muhandis

F.Xamidova

Boshqaruv raisining iqtisodiyot, moliya va transformatsiya bo'yicha o'rinbosari

M.Achilov

Boshqaruv raisining tijorat masalalari
bo'yicha o'rinbosari v.b.

M.Kambarov

Kotibiyat mudiri v.b.

S.Kasimov

Yuridik departament boshlig'i

Sh.Jurayev

Komplayens-nazorat xizmati boshlig'i v.b.

ISHLAB CHIQILDI:

B.Yuldashev

Moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi
boshlig'i v.b.